

**O'KTAM G'AFFOROV**

**UMID SHOMURODOV**

**8-SINF**

**O'ZBEKISTON DAVLATI  
VA HUQUQI ASOSLARI**

**MAVZULASHTIRILGAN TESTLAR**

**TO'PLAMI**

**(1-30-&)**

**\* NAMUNA \***

**TOSHKENT-2022**

**1-mavzu: O'zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat**

**1. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qachon qabul qilingan ?**

- A) 1948-yil
- B) 1950-yil
- C) 1946-yil
- D) 1952-yil

**2. Mamlakatimizdagi olamshumul islohotlarning bosh g'oyasi, maqsadi qilib nima belgilandi ?**

- A) insonning iqtisodiy huquqlari ta'minlash
- B) insonning siyosiy huquqlari ta'minlash
- C) insonning ijtimoiy huquqlari ta'minlash
- D) insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash

**3. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida quyidagi qanday huquqlarga ega ?**

- A) shaxslarni fuqarolikka qabul qilish va fuqarolikdan mahrum etish huquqi
- B) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining faoliyatini yo'lga qo'yish huquqi
- C) daxlsizlik, o'z hududiga va chegarasiga egalik huquqi
- D) barchasi javoblar to'g'ri

**4. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida quyidagi qanday huquqqa ega emas ?**

- A) o'z xazinasini va pul birligi – milliy valutasini joriy qilish huquqi
- B) Markaziy Osiyo davlatlarining ma'muriy tuzilishini belgilash huquqi
- C) o'z gerbi, bayrog'I, madhiyasi va poytaxtiga ega bo'lish huquqi
- D) davlat tiliga egalik huquqi

**5. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida quyidagi qanday huquqqa ega emas ?**

- A) o'z Qurolli Kuchlarini tashkil qilish huquqi
- B) o'z mulkiga egalik, budjet, soliq va moliya tizimlarini tashkil qilish huquqi
- C) daxlsizlik, federatsiya hududiga va federatsiya chegarasiga egalik huquqi
- D) referendum o'tkazish hamda hokimiyat va boshqaruv organlari tarkibini belgilash huquqi

**6. Mustaqil inson deganda qanday shaxs tushuniladi ?**

- A) o'z yurtida erkin va baxtiyor hayot kechirish uchun ijtimoiy huquqlarga ega bo'lgan shaxs

- B) o'z yurtida erkin va baxtiyor hayot kechirish uchun iqtisodiy huquqlarga ega bo'lgan shaxs
- C) o'z yurtida erkin va baxtiyor hayot kechirish uchun ma'lum huquqlarga ega bo'lgan shaxs
- D) o'z yurtida erkin va baxtiyor hayot kechirish uchun barcha zarur huquqlarga ega bo'lgan shaxs

**7. Qanday davlat shaxs huquq va erkinliklari ustuvor qilib qo'yilgan qonunchilikni yarata oladi ?**

- A) haqiqiy mustaqil davlat
- B) federative davlat
- C) konfederativ davlat
- D) konstitutsiyaviy-monarxiyaga asoslangan davlat

**8. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qaysi yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi qabul qilingan ?**

- A) 2015-2021-yillar
- B) 2016-2020-yillar
- C) 2017-2021-yillar
- D) 2018-2022-yillar

**9. Harakatlar strategiyasi 2-yo'nalishi qanday nomlanadi ?**

- A) “Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish”
- B) “Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish”
- C) “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish”
- D) “Ijtimoiy sohani rivojlantirish”

**10. Harakatlar strategiyasi 2-yo'nalishida nima belgilab qo'yilgan ?**

- A) “fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash”
- B) “demokratik islohotlarni chuqurlashtirish”
- C) “xususiy mulk huquqini himoya qilish”
- D) “sog'lig'ni saqlash tizimini takomillashtirish”

**11. Mustaqillik sharofati bilan siz qanday imkoniyatlarga ega bo'ldingiz ?**

- A) ta'lim olishingiz, dam olishingiz
- B) ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishingiz
- C) sport bilan shug'ullanishingiz, malakali tibbiy xizmatdan foydalanishingiz
- D) barchasi to'g'ri

**12. “Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart” deb konstitutsiyaning qaysi moddasida yozilgan ?**

- A) 14-modda
- B) 17-modda
- C) 20-modda

D) 24-modda

**13. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qaysi tashkilot tomonidan qabul qilingan ?**

- A) YUNESKO  
B) AYSESKO  
C) BMT  
D) NATO

**14. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi qachon e'lon qilingan?**

- A) 1990-yil 20- iyunda  
B) 1991-yil, 31-avgustda  
C) 1992-yil, 10-dekabrda  
D) 1992-yil, 8-dekabrda

**15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kirish qismi nima deb ataladi?**

- A) asosiy prinsiplar  
B) muqaddima  
C) 1-bo'lim  
D) xotima

**16. Konstitutsiyada mustahkamlanganidek, O'zbekiston bu – ...**

- A) suveren demokratik 3oorish3ka  
B) mustaqil demokratik 3oorish3ka  
C) mustaqil xalq-demokratik respublikasi  
D) suveren, mustaqil demokratik Respublika

**17. "Suverenitet" so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

- A) Davlatning o'z ichki hayotida boshqa davlatlardan mustaqilligini;  
B) Davlatning o'z ichki hayotida va tashqi munosabatlarida boshqa davlatlardan mustaqilligini;  
C) Davlatning o'z ichki hayotida va boshqa davlatlar bilan munosabatida qaramligini;  
D) Davlatning boshq

### 5-mavzu: Davlat funkiiyalari

**1. Davlat funkiiyalariga to'g'ri berilgan ta'rifni toping.**

- A) davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimi  
B) uning ma'muriy-hududiy tashkil etilishidir  
C) ommaviy davlat hokimiyati, uning idoralari, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi.  
D) davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularda davlatning

ijtimoiy jihatlarini ro'yobga chiqariladi

**2. Davlat funkiiyalari ijtimoiy jihatdan muhimligi bo'yicha ....**

- A) ichki va tashqi  
B) doimiy va vaqtinchalik  
C) asosiy va asosiy bo'lmagan  
D) huquqni ijod qilish, huquqni ijro qilish

**3. Davlat funkiiyalari faoliyat ko'rsatish makoni bo'yicha ....**

- A) ichki va tashqi  
B) doimiy va vaqtinchalik  
C) asosiy va asosiy bo'lmagan  
D) huquqni ijod qilish, huquqni ijro qilish

**4. Davlat funkiiyalari faoliyat ko'rsatish muddati bo'yicha ....**

- A) ichki va tashqi  
B) doimiy va vaqtinchalik  
C) asosiy va asosiy bo'lmagan  
D) huquqni ijod qilish, huquqni ijro qilish

**5. Soliq tizimi va bojxona naozrati davlat ichki funkiiyalarining qaysi vazifasiga kiradi ?**

- A) madaniy-ma'rifiy vazifalar  
B) siyosiy-huquqiy vazifalar  
C) moliyaviy vazifalar  
D) ijtimoiy vazifalar

**6. Quyidagilardan qaysi biri davlatning ichki funkiiyasiga kiradi ?**

- A) modofaa  
B) xalqaro munosabat  
C) xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqa  
D) soliq joriy etish

**7. Davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari nima deb ataladi ?**

- A) davlatning vazifalari  
B) davlatning funkiiyalari  
C) davlatning majburiyatlari  
D) davlatning mulki

**8. Davlatning ichki funkiiya va la ri ga oid vazifalar nimalardan iborat ?**

1. Iqtisodiy vazifalar; 2. Ijtimoiy vazifalar; 3. Siyosiy-huquqiy vazifalar; 4. madaniy-ma'rifiy; 5. moliyaviy; 6. xavfsizlik va himoyalash borasidagi vazifalar;

- A) 1, 3, 4, 5  
B) 2, 4, 5, 6  
C) 1, 2, 3, 4  
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

9. Tabiat muhofazasi davlat ichki funksiyasining qaysi vazifasiga kiradi ?

- A) Iqtisodiy vazifalar
- B) xavfsizlik va himoyalash borasidagi vazifalar;**
- C) madaniy-ma'rifiy vazifalar
- D) Ijtimoiy vazifalar

10. Pul aylanmasi ustidan nazorat davlat ichki funksiyasining qaysi vazifasiga kiradi ?

- A) Iqtisodiy vazifalar
- B) xavfsizlik va himoyalash borasidagi vazifalar
- C) moliyaviy vazifalar**
- D) Ijtimoiy vazifalar

11. Tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlash davlat ichki funksiyasining qaysi vazifasiga kiradi ?

- A) Siyosiy-huquqiy vazifalar**
- B) xavfsizlik va himoyalash borasidagi vazifalar
- C) madaniy-ma'rifiy vazifalar
- D) Ijtimoiy vazifalar

12. Sog'liqni saqlash va ta'limtizimini qo'llab quvvatlash davlat ichki funksiyasining qaysi vazifasiga kiradi ?

- A) Iqtisodiy vazifalar
- B) siyosiy-huquqiy vazifalar
- C) madaniy-ma'rifiy vazifalar
- D) Ijtimoiy vazifalar**

13. Bozor munosabatlarinig huquqiy asoslari va narx siyosatini yo'lga qo'yish davlat ichki funksiyasining qaysi vazifasiga kiradi ?

- A) Iqtisodiy vazifalar**
- B) siyosiy-huquqiy vazifalar
- C) madaniy-ma'rifiy vazifalar
- D) Ijtimoiy vazifalar

14. Davlat funksiyalari necha xil bo'ladi ?

- A) siyosiy va ijtimoiy
- B) tashqi va ichki**
- C) moliyaviy va huquqiy
- D) madaniy va moliyaviy

15. Davlat qachon jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi mumkin ?

- A) diplomatik aloqalar; savdo-sotiq aloqalari aloqalarni yo'lga qo'yganda
- B) madaniy aloqalar; harbiy aloqalar aloqalarni yo'lga qo'yganda
- C) moliyaviy aloqalar, ijtimoiy aloqalar aloqalarni yo'lga qo'yganda
- D) A va B javoblar to'g'ri**

16. Davlatning ichki funksiyasiga kirmaydigan javobni aniqlang.

- A) fuqarolarning madaniy-ma'rifi y barkamollikka erishishlari uchun sharoit yaratish
- B) aholining ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy sohani rivojlantirish
- C) xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalar.**
- D) fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash

17. Davlatning tashqi funksiyasiga kirmaydigan javobni aniqlang.

- A) tashqi xavf-xatardan mudofaa
- B) xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish
- C) xalqaro iqtisodiy faoliyat
- D) barcha mulkchilik shakllaridagi mulkni himoyalash**

18. Davlatning ichki funksiyasiga kirmaydigan javobni aniqlang.

- A) mamlakatning iqtisodiy sohadagi rivojlanishini ta'minlash
- B) fuqarolarning madaniy-ma'rifi y barkamollikka erishishlari uchun sharoit yaratish
- C) tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash**
- D) barcha mulkchilik shakllaridagi mulkni himoyalash

19. Davlatning tashqi funksiyasiga kirmaydigan javobni aniqlang.

- A) tashqi xavf-xatardan mudofaa
- B) xalqaro iqtisodiy faoliyat
- C) tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash
- D) fuqarolarning madaniy-ma'rifi y barkamollikka erishishlari uchun sharoit yaratish**

20. Davlatning moliyaviy vazifalari qaysi javobda xato berilgan ?

- A) Soliq tizimi va bojxona nazorati
- B) Pul aylanmasi ustidan nazorat
- C) diplomatik aloqalar**
- D) Moliya sohasidagi boshqa faoliyatlar

21. Davlatning xavfsizlik va himoyalash borasidagi vazifalari qaysi javobda xato berilgan ?

- A) Aholining huquq va erkinliklarini ta'minlash
- B) Qonuniylik va tartibni ta'minlash**
- C) Huquqiy tartibotni o'rnatish
- D) Mulk daxlsizligini ta'minlash

22. Davlatning madaniy-ma'rifiy vazifalari qaysi javobda xato berilgan ?

- A) ilm-fanni rivojlantirish  
 B) ta'limni rivojlantirish  
 C) milliy madaniyatni rivojlantirish  
 D) **mulk daxlsizligini rivojlantirish**

**23. Davlatning siyosiy-huquqiy vazifalari qaysi javobda xato berilgan ?**

- A) **Aholining huquq va erkinliklarini ta'minlash**  
 B) Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish  
 C) Qonuniylik va tartibni ta'minlash  
 D) Tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlash

**24. Davlatning ijtimoiy vazifalari qaysi javobda xato berilgan ?**

- A) Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash  
 B) **Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish**  
 C) Aholini ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlash  
 D) Aholining yordamga muhtoj qismini himoyalash

**25. Davlatning iqtisodiy vazifalari qaysi javobda xato berilgan ?**

- A) Bozor munosabatlarining huquqiy asoslari va narx siyosatini yo'lga qo'yish  
 B) Iqtisodiyotning davlat sektori (zavod-fabrikalar, elektrostansiyalar, konlar)ni boshqarish  
 C) Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish  
 D) **Pul aylanmasi ustidan nazorat**

**26. Davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari nima deb ataladi ?**

- A) davlatning vazifalari  
 B) **davlatning funksiyalari**  
 C) davlatning majburiyatlari  
 D) davlatning mulki

**27. To'g'ri javobni aniqlang.**

- A) davlat hokimiyatning iqtisodiy tashkilotidir  
 B) davlat majburlash apparatidan iborat tashkilot  
 C) davlat huquq institutlari va huquq normalarini tizimidir  
 D) **davlat mustaqil siyosiy tashkilotdir**

**28. Davlatning tashqi funkiasiga oid qatorni toping.**

- 1) mamlakatning iqtisodiy sohadagi rivojlanishini ta'minlash; 2) **xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish**; 3) fuqarolarning madaniy-ma'rifi y barkamollikka erishishlari uchun sharoit yaratish; 4) **tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash**; 5) tashqi xavf-xatardan mudofaa; 6) xalqaro iqtisodiy faoliyat.

- A) 1, 2, 4, 5  
 B) 1, 2, 3, 4  
 C) **2, 4, 5, 6**  
 D) 2, 3, 5, 6

### 9-mavzu: Fuqarolik jamiyati

**1. Jamiyat tushunchasi eng avvalo qayerda paydo bo'lgan ?**

- A) Sharqda , qadimgi Bobilda "Hammurappi qonunlari"  
 B) qadimgi Turonda "Avesto" zardushtiylik davrida  
 C) qadimgi Ellada va Rimda  
 D) **A va B javoblar to'g'ri**

**2. Jamiyat tushunchasi keyinchalik qayerda paydo bo'lgan ?**

- A) Sharqda , qadimgi Bobilda "Hammurappi qonunlari"  
 B) qadimgi Turonda "Avesto" zardushtiylik davrida  
 C) **qadimgi Ellada va Rimda**  
 D) A va B javoblar to'g'ri

**3. «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» ushbu so'zlar kimga tegishli ?**

- A) **Shavkat Mirziyoyev**  
 B) Islom Karimov  
 C) Sharof Rashidov  
 D) Rafiq Nishonov

**4. Fuqarolik jamiyati ta'rifi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.**

- A) davlat boshqaruvi buyruq va farmoyishlarga asoslangan, fuqarolarning va tashkilotlarning erkinliklari cheklangan davlatdir.  
 B) huquqning hukmronligi ta'minlangan, insonning huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, hokimiyat vakolatlari bo'lingan davlatdir  
 C) ham huquqiy davlatning, ham etatik davlatning belgilarini ma'lum darajada o'zida mujassamlagan davlat turidir.  
 D) **komil fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir**

**5. Abu Nasr Farobiyga tegishli asarni aniqlang.**

- A) "Hindiston"
- B) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"
- C) "Fozil odamlar shahri"**
- D) "Hidoya"

**6. Adolatli jamiyat asosiy yo'llarini Farobiy qanday bayon etgan ?**

1) Fozil davlat rahbari va davlat a'zolarining bo'lishi; 2) Qonun-qoidalarining mavjudligi va ularga davlat rahbarlarining va barcha aholining bo'ysunishi; 3) Ilm-fanning taraqqiy etishi; 4) Insonlarda yaxshi axloq va xulqning shakllanganligi; 5) Davlat urush va bosqinchiliklarga qarshi bo'lmog'i, mamlakatda tinchlik, barqarorlikning o'rnatilishi.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 4, 5
- C) 1, 2, 3, 4, 5**
- D) 2, 3, 4, 5

**7. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari noto'g'ri berilgan javobni toping.**

- A) turli mulkchilik shakllarining mavjudligi
- B) barcha mulkchilik shakllariga har xilda munosabatda bo'linishi, ya'ni mulkchilik shakllarining qonun doirasida tengligi**
- C) tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratilganligi;
- D) siyosiy erkinliklarning mavjudligi

**8. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari to'g'ri berilgan javobni toping.**

- A) fikrlar xilma-xilligi va axborot erkinligining mavjudligi
- B) o'zini-o'zi boshqarish organlarining rivojlanganligi;
- C) huquq ustuvorligining ta'minlanganligi
- D) barcha javoblar to'g'ri**

**9. «Eng mushkul ish qonunni joriy qilishdir» ushbu fikr kimga tegishli ?**

- A) Suqrot
- B) Aflotun**
- C) Farobiy
- D) Beruniy

**10. Fuqarolik jamiyatida davlat kimning nazoratida bo'lishi kerak ?**

- A) prezidentning
- B) Oliy Majlisning
- C) Oliy sudning
- D) jamiyatning**

**11. Fozil davlat rahbari o'zida nechta xislatni aks ettirgan bo'lishi kerak ?**

- A) 13 ta
- B) 14 ta
- C) 12 ta**
- D) 11 ta

**12. Fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari qaysi javobda xato berilgan ?**

- A) iqtisodiy,
- B) ma'naviy
- C) ijtimoiy siyosiy
- D) madaniy**

**13. Fuqarolik jamiyatining xususiyatlari iqtisodiy sohada to'g'ri berilgan javobni toping.**

- A) so'z va fikr erkinligi, vijdon erkinligi, ijodiy uyushmalarning mustaqilligi
- B) fuqarolar, oilalar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlarning mavjudligi**
- C) nodavlat notijorat tashkilotlarning, shirkatlarning, aksiyadorlik kompaniyalarining, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlarning yaratilganligi
- D) ijtimoiy qarama-qarshiliklarni qonun doirasida yechish imkoniyatlarining mavjudligi

**14. Fuqarolik jamiyatining xususiyatlari ma'naviy sohada to'g'ri berilgan javobni toping.**

- A) so'z va fikr erkinligi, vijdon erkinligi, ijodiy uyushmalarning mustaqilligi**
- B) fuqarolar, oilalar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlarning mavjudligi
- C) nodavlat notijorat tashkilotlarning, shirkatlarning, aksiyadorlik kompaniyalarining, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlarning yaratilganligi
- D) ijtimoiy qarama-qarshiliklarni qonun doirasida yechish imkoniyatlarining mavjudligi

**15. Fuqarolik jamiyatining xususiyatlari ijtimoiy-siyosiy sohada to'g'ri berilgan javobni toping.**

- A) so'z va fikr erkinligi, vijdon erkinligi, ijodiy uyushmalarning mustaqilligi  
**B) fuqarolar, oilalar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlarning mavjudligi**  
 C) nodavlat notijorat tashkilotlarning, shirkatlarning, aksiyadorlik kompaniyalarining, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlarning yaratilganligi  
 D) ilmiy uyushmalarning mustaqilligi ta'minlanganligi

**16. «Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni o'rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o'ziga foyda keltiradi» ushbu fikr kimga tegishli ?**

- A) Demokrit  
**B) Aflotun**  
 C) Demosfen  
 D) Beruniy

**17. Hozirgi zamonda fuqarolik jamiyati sharoitidagi hayot nimaga asoslangan bo'lishi shart ?**

- A) axloq qoidalariga  
**B) huquqqa**  
 C) iqtisodga  
 D) normaga

**18. Fuqarolik jamiyati, davlatning tazyiqsiz, qonun doirasida vujudga kelgan muayyan kishilik jamiyatining ..... deb tushuniladi.**

- A) ixtiyoriy o'zini-o'zi boshqarishi**  
 B) urug'-aymoqchilikka asoslangan bosharuvi  
 C) harbiy demokratiyaga asoslangan bosharuvi  
 D) qabila urf-odatlariga asoslangan bosharuvi

**19. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining belgilari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

- 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlar;  
 2) Jamoat tuzilmalari; 3) Nodavlat notijorat tashkilotlar; 4) Ta'lim-tarbiya muassasalari.  
 5) Diniy tashkilotlar; 6) Milliy-madaniy markazla;  
 7) Jamoatchilik fikrini o'rganish tashkilotlari;  
 8) Oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; 9) Fuqarolarning o'zini-o'zi

boshqarish organlari; 10) Ommaviy axborot vositalari; 11) Demokratik saylov tizimi;  
 12) yagona partiyaning hukmronligi

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 12  
**B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11**  
 C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 11, 12  
 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 9, 10, 11, 12

**20. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanayotganligining yaqqol isboti deb qanday nodavlat notijorat tashkilotlarni misol qilib olish mumkin ?**

- A) O'zbekiston xotin-qizlar qo'mi tasi  
 B) "Sog'lom avlod uchun", "Nuroni" jamg'armalari  
 C) "Ijod" fondi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
**D) barcha javoblar to'g'ri**

**21. «Qonunga shubha bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish esa eng oson ishdir» ushbu fikr kimga tegishli ?**

- A) Suqrot  
**B) Aflotun**  
 C) Farobiy  
 D) Beruniy

**22. 2018- yil 1-iyul holatiga ko'ra, mamlakatimizda Adliya vazirligining ro'yxatidan o'tgan fuqarolik jamiyati institutlari soni nechtani tashkil etadi ?**

- A) 6.478 ta  
 B) 9.578 ta  
 C) 6.378 ta  
**D) 9.478 ta**

**23. Yashash joyidagi milliy o'zini-o'zi boshqarishning o'ziga xos modeli nima deb ataladi?**

- A) davlat  
 B) jamiyat  
**C) mahalla**  
 D) maktab

**24. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan inson huquqlaribo'yicha tashkilotlarga quyidagilardan qaysilari kiradi ?**

- 1) Ombudsman; 2) YUNESKO; 3) Inslon huquqlari bo'yicha milliy markaz; 4) BMT; 5) "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi; 6) MDH; 7) amaldagi qonun hujjatlari monitoring instituti

- A) 1, 3, 6, 7  
 B) 2, 4, 5, 6  
 C) 1, 3, 5, 7  
 D) 1, 2, 3, 4

**25. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashining tuzilishi..... deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash va mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojini yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo‘ldi.**

- A) “birinchi sektor”  
 B) “ikkinchi sektor”  
 C) “uchinchi sektor”  
 D) “to‘rtinchi sektor”

**26. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim elementi nima ?**

- A) huquqning ustuvorligi  
 B) mulkni davlat tasarrufidan chiqarish  
 C) ishlab chiqarishni yuksaltirish  
 D) ko‘ppartiyaviylik tizimini rivojlantirish

**27. Ali ibn Abu Tolibga tegishli fikrni to‘ping.**

- A) “Davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning har uchalasini tadbirkorlik bilan yaxshi ahvolda saranjom tutadi.”  
 B) “Agar hokimiyat atrofi da adolat hukm surmasa, u inqirozga yuz tutadi”  
 C) “Adolat – oxiratda najot, dunyoda saodat boshi”  
 D) “Podshoh o‘zlarini adolat bilan bezatishlari kerak, xalq bunday podshohga ehtirom ko‘rsatishi zarur”

**28. Qanday jamiyatda davlat va shaxs huquqning teng subyektlari sifatida faoliyat yuritadilar ?**

- A) yer egaligi jamiyati  
 B) ibtidoiy jamoa tuzimida  
 C) fuqarolik jamiyati  
 D) kapitalistik jamiyat

**29. O‘zbekistonda kimlar fuqarolik jamiyati ijtimoiy negizining o‘zagini tashkil etishi lozim ?**

- A) o‘qituvchilar  
 B) nuroniyalar  
 C) huquqshunoslar  
 D) yoshlar

**30. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining taraqqiy topishini qanday asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ?**

- 1) Mulkni davlat tasarrufi dan chiqarish;  
 2) Ko‘ppartiyaviylik tizimini rivojlantirish;  
 3) Ishlab chiqarishni yuksaltirish;  
 4) Maqbul ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish.

- A) 1, 3  
 B) 2, 3, 4  
 C) 1, 2, 3  
 D) 1, 2, 3, 4

O'ktam G'afforov